


N.SH. XAJIMURATOV,
E.T. TULOVOV

QURILISH-PUDRAT TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH





654.5
x15


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**N.SH. XAJIMURATOV,
E.T. TULOVOV**

**QURILISH-PUDRAT TASHKILOTLARIDA
BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI
TAKOMILLASHTIRISH**

(MONOGRAFIYA)



250

TOSHKENT - 2023

657.5

+658.1

UO'K: 657.6-051:69

KBK: 65.052.5

X 15

X 15

N.Sh. Xajimuratov, E.T.Tulovov. Qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish. (Monografiya). - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2023, 136 bet.

ISBN 978-9910-01-091-0

Monografiyada jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarida qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy taklif hamda tavsiyalar aks ettirilgan.

Monografiyadan oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy sohadagi professor-o'qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar, malaka oshirish tinglovchilari, shuningdek, auditorlar, buxgalterlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari foydalanishlari mumkin.

Mazkur monografiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashida muhokama etilgan va nashrga tavsiya qilingan (11-sonli bayonnoma, 2023-yil 4-iyul).

UO'K: 657.6-051:69

KBK: 65.052.5

Taqrizchilar:

A.Z.Avloqulov - i.f.d., professor,

B.Y.Mengliqulov - i.f.d., professor.

ISBN 978-9910-01-091-0 4377



© "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2023.

KIRISH

Jahon mamlakatlarida qurilish iqtisodiyotning tayanch tarmoqlaridan biri hisoblanib, qo'shilgan qiymat yaratish hamda ishsizlikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro konsalting kompaniyasi hisobotiga ko'ra, «Qurilish iqtisodiyotning eng muhim tarmog'i hisoblanib, jahon mamlakatlarida ushbu tarmoqqa har yili o'rtacha 10 trln. AQSH dollari miqdorida mablag' yo'naltiriladi. Biroq qayta ishlaydigan sanoatda mehnat unumdorligi o'rtacha 3,6 %ni tashkil etgani holda, qurilish tarmog'ida mazkur ko'rsatkich 1 %dan oshmaydi»¹. Mazkur holat jahon mamlakatlarida qurilish tarmog'ida resurslardan oqilona foydalanish va faoliyat samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Shu boisdan qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirishda buxgalteriya hisobi va auditni to'g'ri tashkil etish muhim hisoblanadi.

Jahonda qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida tashkil etishga oid ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda qurilish-pudrat tashkilotlarida xarajatlarni tasniflash, hisob siyosatini retrospektiv qo'llash, segmentar hisobotlarni tuzish, moliyaviy natijalar hisobini yuritishda xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushumni tan olish tartibini takomillashtirish, aktivlar va majburiyatlarni baholashda haqqoniy qiymatdan foydalanish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish, baholangan va shartli majburiyatlar hisobini mukammallashtirish, qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyati auditida tahliliy amallarni qo'llash, faoliyat uzluksizligi va hisobot sanasidan keyingi hodisalarni baholash, firibgarlik bilan bog'liq muhim buzib ko'rsatish holatlari bo'yicha risklarni baholash, modifikatsiyalangan auditorlik xulosalarini tuzish kabi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

¹ <https://www.mckinsey.com>

O'zbekistonda qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirishga doir amaliy choralar ko'rilmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-6119-sonli Farmonida «shaharsozlik faoliyati sohasidagi ma'muriy tartib-taomillarning samaradorligi, ratsionalligi va shaffofligini ta'minlash, shuningdek, qurilish tarmog'i tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish»² vazifasi belgilab berilgan. Bu esa qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini sohasiga bo'lgan yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmogda. Zero, qurilish-pudrat tashkilotlarida resurslardan oqilona foydalanish orqali faoliyat samaradorligini oshirishda buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish davr talabidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli, 2020-yil 27-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-6119-son farmonlari, 2018-yil 19-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3946-sonli, 2020-yil 24-fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-sonli, 2022-yil 22-sentabrdagi «Respublikada kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-378-sonli qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi».

tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 171-sonli, 2022-yil 30-apreldagi «Qurilish sohasiga oid yagona ma'muriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 200-sonli qarorlari, shuningdek, qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditiga taalluqli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish orqali foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojarini yanada ko'proq darajada qanoatlantirish imkonini yuzaga keladi. U investorlar va boshqa manfaatdor shaxslarga tashkilot haqida yetarlicha ishonchli va tushunarli axborotni taqdim etadi. Natijada, bunday tashkilot ishbiarmon kontragentlar va umuman, jamiyat uchun axborot olish borasida shaffof bo'ladi, bu esa, tashkilot bilan o'zaro hamkorlik qilishda noaniqlik va risklar darajasini sezilarli pasaytiradi, demak, uni qo'shimcha moliyaviy resurslar uchun kurashda raqobatbardosh qiladi.

Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish jarayonida auditorlar tomonidan qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni auditdan o'tkazishga katta ehtiyoj sezilmoqda. Xususan, xalqaro auditorlik standartlari asosida auditorlik dalillarni to'plash, aktivlarning qadrsizlanishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni inobatga olgan holda auditorlik riskini to'g'ri baholash, dalillarni ishonchlilik darajasiga qarab to'g'ri tasniflash, qadrsizlanish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar auditini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunga ko'ra, mazkur monografiyada xo'jalik yurituvchi subyektlarda aktivlarning qadrsizlanishi hisobi va auditini takomillashtirishning nazariy va amaliy masalalari tadqiq etilib, bu boradagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

I BOB. QURILISH-PUDRAT TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning xususiyatlari


Iqtisodiyot tarmoqlari faoliyat xususiyatlari ularda buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil etishga bevosita bog'liq. Qurilish tarmog'ida ham faoliyatni tashkil etish va yuritishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, mazkur holat qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi ishlari tashkil etishda o'ziga xos murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Qurilish-pudrat tashkilotlari ish jarayonlarida smeta hujjatlari muhim o'rin tutadi. Deyarli barcha qurilish obyektlarida smeta hujjatlaridan keng foydalaniladi.

Qurilish tarmog'ining yana bir muhim jihati shundaki, unda faoliyat yurituvchi subyektlar ko'lami va ular bajaradigan ishlar turlicha. Ya'ni buyurtmachi tashkilotdan tashqari bosh pudratchi va bir nechta subpudratchi tashkilotlar muayyan qurilish obyektini qurishda ishtirok etadi.

Qurilish-pudrat tashkilotlarida ishlab chiqarish jarayoni murakkab. Bu yerda asosiy ishlab chiqarishdan tashqari yordamchi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xo'jaliklari ham mavjud. Odatda, yordamchi ishlab chiqarish asosiy ishlab chiqarishning normal davom etishiga xizmat qiladi. Yordamchi ishlab chiqarishda muhim o'rinni transport vositalari egallaydi. Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar ham turli xizmatlar ko'rsatishi mumkin. Qurilish-pudrat tashkilotlarida mazkur turdagi xizmatlarga quruvchilarni ovqatlantirish xizmatlari kiradi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qurilish ishlari hajmi keskin oshib bormoqda. 1.1-rasmda qurilish ishlarining YaIMdagi ulushining o'zgarishi keltirilgan.

1.1-rasmdagi ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda qurilish ishlarining YaIMdagi ulushi oshib bormoqda. Xususan, 2017-yilda qurilish tarmog'ining YaIMdagi ulushi 5,7 %, 2021-yilda 6,7 %ni tashkil etgan.




1.1-rasm. Qurilish ishlarining YaIMdagi ulushining o'zgarishi³

1.2-rasmda respublika bo'yicha qurilish ishlari hajmi dinamikasi keltirilgan.

1.2-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yilda respublika bo'yicha 34698,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan. Qurilish ishlari hajmi yildan yilga oshib borgan va 2021-yilda bu ko'rsatkich 107492,7 mlrd. so'mni tashkil etgan.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.




1.2-rasm. O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlari hajmi dinamikasining o'zgarishi, mlrd. so'mda⁴

Qurilish ishlari holatiga baho berishda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi va ulushini o'rganish zarur. 1.3-rasmda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushining yillar kesimida o'zgarishi keltirilgan.

1.3-rasm ma'lumotlariga ko'ra, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 2017-yilda 23,9 %, 2021-yilda 32,6 %ni tashkil etgan. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YaIMda ulushining eng yuqori qiymati 2019-yilga to'g'ri kelib, 37,0%ni tashkil qilgan.


⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.



1.3-rasm. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YaIM ulushi⁵

1.4-rasmda respublika bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi keltirilgan.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.



1.4-rasm. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar⁶


1.4-rasm ma'lumotlariga ko'ra, respublika asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hajmi 2017-yilda 72155,2 mlrd. so'm, 2021-yilda 239552,6 mlrd. so'mni tashkil etgan, ya'ni 3,3 barobarga o'sgan.

Qurilish sohasi aholining ish bilan bandligini ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. 1.5-rasmda qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan aholi sonining o'zgarishi keltirilgan.

1.5-rasmdan ko'rinib turibdiki, qurilish tarmog'ida band bo'lgan aholi 1209,0 ming kishi, 2021-yilda 1350,8 ming kishini tashkil etgan. Ya'ni mehnatga layoqatli aholining qariyb 1,5 millionga yaqini qurilish tarmog'ida faoliyat yuritgan.

Qurilish tarmog'i aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, keyingi yillarda aholining turli qatlamlariga imtiyozli sharoitlar va qulay narxlarda uy-joylar qurilmoqda hamda foydalanishga topshirilmoqda.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.




1.5-rasm. Qurilish tarmog'ida band bo'lgan aholi, ming kishi⁷

1.6-rasmda respublika bo'yicha foydalanishga topshirilgan uy-joylar to'g'risida ma'lumot berilgan.


2017-yilda respublika bo'yicha foydalanishga topshirilgan uy-joylar hajmi 11456,4 ming kvadrat metrni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib, 14045,5 ming kvadrat metrga teng bo'lgan. Foydalanishga topshirilgan uy-joylar hajmining eng yuqori ko'rsatkichi 2019-yilga to'g'ri kelib, 15501,5 ming kvadrat metrni tashkil etgan. 2020–2021-yillarda foydalanishga topshirilgan uy-joylar hajmining kamayishiga koronavirus pandemiyasi davridagi cheklovlar o'z ta'sirini ko'rsatgan.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.



1.6-rasm. Foydalanishga topshirilgan uy-joylar, ming metr kvadrat⁸

1.7-rasmda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi keltirilgan.




1.7-rasm. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi⁹

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

1.7-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida 2017-yilda qurilish-montaj ishlari 49,9 %, asbob-uskuna, jihoz va inventarlar xarid qilish 34,8 % va boshqa kapital ishlari hamda xarajatlar 15,3 %ni tashkil etgan. Biroq yillar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida o'zgarishlar kuzatilgan. Xususan, 2021-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida qurilish-montaj ishlari 44,5 %, asbob-uskuna, jihoz va inventarlar xarid qilish 47,5 % va boshqa kapital ishlari hamda xarajatlar 8,0 %ni tashkil etgan. Ya'ni oxirgi yillarga kelib, asbob-uskuna, jihoz va inventarlar xarid qilishga keng e'tibor qaratilgan.


1.8-rasmda respublika hududlari bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlarining salmog'i keltirilgan. Respublika hududlarida qurilish ishlarining eng yuqori salmog'i Toshkent shahrida kuzatilgan (26,3 %). Shuningdek, Toshkent viloyatida – 9,3 %, Samarqand viloyatida – 7,3 %, Farg'ona viloyatida – 6,9 %, Qashqadaryo viloyatida – 6,3 % ulushga ega bo'lgan. Qurilish ishlari Jizzax viloyatida 3,1 % va Sirdaryo viloyatida 2,7 %ni tashkil etib, eng kam ko'rsatkich sifatida qayd etilgan.



1.8-rasm. Respublika hududlari bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlarining salmog'i, %da¹⁰

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

1.9-rasmda respublika hududlari bo'yicha 2021-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi keltirilgan.



1.9-rasm. O'zbekiston hududlarida 2021-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'mda¹¹

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar darajasi iqtisodiyotning rivojlanishini ifodalovchi muhim ko'rsatkichdir. 1.9-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2021-yilda respublika bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi hududlar bo'yicha jiddiy farqlanadi. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmida Toshkent shahri yetakchilik qilib kelmoqda, ya'ni mamlakatimiz poytaxtida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar qiymati 2021-yilda 58172,7 mlrd. so'mni tashkil etgan. Shuningdek, Toshkent viloyatida 28113,6 mlrd. so'm, Buxoro viloyatida 20528,3

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

mlrd. so'm, Qashqadaryo viloyatida 17359,1 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilgan.

1-ilovada O'zbekiston Respublikasida mulkchilik shakli bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlarini ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra, qurilish ishlari, asosan, nodavlat mulkchilik shakliga to'g'ri keladi. Xususan, 2021-yilda jami qurilish ishlarining 94,8 %i nodavlat mulkchilik, 5,2 % esa davlat mulkchilik shakliga to'g'ri kelgan.

Mamlakatimizda keyingi yillarda uy-joy qurilishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad aholining uy-joy bilan ta'minlanish darajasini oshirishdir. 2-ilovada oxirgi yillarda 1000 nafar aholiga nisbatan foydalanishga topshirilgan uy-joylar hajmi keltirilgan. Xususan, 2021-yilda 1000 nafar aholiga shaharlarda 553,7 ming kvadrat metr, qishloq joylarda 256,1 ming kvadrat metr uy-joy foydalanishga topshirilgan.

Qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyatining samarali yo'lga qo'yilishida buxgalteriya xizmati muhim ahamiyat kasb etadi. Buxgalteriya hisobi biznes-jarayonlarni aks ettirib, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini ifodalaydi va axborot ta'minoti orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

A.A. Karimov, F.R. Islomov va A.Z. Avlokulov tomonidan nashr etilgan darslikda buxgalteriya hisobi quyidagicha talqin etilgan: "Buxgalteriya hisobi – bu kundalik va umumiy ma'lumotlar olish maqsadida korxonalar xo'jalik faoliyatini uzluksiz ravishda kuzatish va nazorat qilish tizimidan iborat"¹².

I.f.d., professor B.Yu. Maqsudovning fikricha, "Buxgalteriya hisobi – bu iste'molchilar uchun qarorlarni tayyorlash, ularni asoslash va qabul qilish uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlarni taqdim etish, iqtisodiy ma'lumotlarni qayd etish va identifikatsiya qilish va ko'rsatkichlarni hisoblash hamda baholash jarayonidir"¹³.

¹² Karimov A.A., Islomov F.R., Avlokulov A.Z. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: "Sharq" NMAK, 2004. – 592-b.

¹³ Maqsudov B.Yu. Zamonaviy boshqaruv hisobining xo'jalik yurituvchi subyektlarni rivojlantirishdagi roli. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №3. 2012-yil, mart.

MUNDARIJA

KIRISH	3
---------------------	----------

I BOB. QURILISH-PUDRAT TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI	6
1.1-§. Qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning xususiyatlari	6
1.2-§. Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditning tashkiliy jihatlari	29
I bob bo'yicha xulosalar	48

II BOB. QURILISH-PUDRAT TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITNI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI HOLATI	50
2.1-§. Qurilishga sarflangan xarajatlar hisobini tashkil etishning hozirgi holati	50
2.2-§. Qurilish-pudrat tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini tashkil etishning amaldagi holati	60
2.3-§. Qurilish-pudrat tashkilotlarini auditdan o'tkazishning amaliy jihatlari	69
II bob bo'yicha xulosalar	82

III BOB. QURILISH-PUDRAT TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	84
3.1-§. Qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish yo'llari.....	84
3.2-§. Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditni xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirish	95
III bob bo'yicha xulosalar	120
XULOSA.....	122
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	125